

**JANUBIY OROL BO‘YI SHO‘RLANGAN TUPROQ  
SHAROITIDA SOYANING HOSIL TO‘PLASH  
KO‘RSATKICHLARI**

*Oserbaeva Tamaraxan-Qoraqalpog‘iston qishloq xójalik va  
agrotexnologiyalar instituti professor v.b.*

*[tamaraxan1502@gmail.com](mailto:tamaraxan1502@gmail.com) Orcid: 0009-0001-7167-8148*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada soya navlarining balandlikka ósishiga, hosil to‘plashiga tajribada órganilgan 3 ta ekish muddatlarining (aprelning 1-dekadasi, 2 va 3-dekadalari) tasiri órganilgan va eng maqbul muddat 10-aprel ekanligi aniqlangan. Tajribada órganilgan Nafis navida Tumaris naviga nisbatan balandlikka ósish jarayoni va boshqa kórsatkishlari optimal bólgan. Qoraqalpog‘istonning shórlangan tuproqlarida Nafis navini ekish qulayli va samaradorli ekanligini aniqlagan.*

**Kalit sózlar:** *soya, dekada, navlar, optimal, ekish muddatlari.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье изучено влияние 3-х сроков посева (1-я декада, 2-я и 3-я декады апреля) на росте высоты и урожайность сортов сои и определено, что наиболее оптимальным сроком является 10 апреля. В опыте сорт Нафис показал положительные параметры по сравнению с сортом Тумарис, а также установлено, что сорт Нафис удобно и эффективно высевать на засоленных почвах Каракалпакстана.*

**Ключевые слова:** *soя, декада, сорта, оптималь, сроки посева.*

**ANNOTATION:** *This article examines the effect of 3 sowing dates (1st decade, 2nd and 3rd decades of April) conducted in an experiment on the growth of soybean varieties, and it is established that the optimal date is April 10. In the experiment, the organized Nafis variety had an optimal wilting process and other height indicators compared to the Nafis variety. It was found that planting the Tumaris variety on salted soils of Karakalpakstan is convenient and effective*

**Key words** - *soybean, decade, kind, optimal, sowing dates.*

Dukkakli don ekinlarining orasida soya ósimligi katta ahamiyatga ega. Sóngi yillarda Ózbekiston Respublikasida soyaga bólgan e'tibar ortib bormoqda. Soya oqsilini yetishtirish harajatlari juda kam va gektar hisobida olinishi bólsa kóp miqdorni tashkil qiladi. Soya oqsilidan oziq-ovqat sanoatida ekologik toza mahsulot olinadi. Soya ekilgan maydonlar tuproqni toza azot bilan taminlab tuproq mikroflorasini yaxshilaydi. Ayniqsa, butun dunyoda oqsil yetishmovchiligi hukm surgan davrda, Soya donida 30-52 % oqsilning bólishi, 17-27 % moy va 20 % karbon suvlari bóladí. Oníng kóp tarqalishi don va oqsiliniń sifatiga bog'lik bóladí. Soya donidan moy, margarin, pishloq, sut, un, konditer mahsulotlari, konservalar ishlab shıqıladı. Er yuzida etishtiriladigan ósimlik moyınıń 40% soya moyıga tuđri keladi.[1;3,5-2]

Soya yetishtirishni yólga qóyish oqsil yetishmovchiligi muammosini bartaraf qilishga yordam berishi mumkin. Shu bilan bir qatorda soya ósimligi ekilgan maydondagi tuproqlarning hosildorligini uning ildizidagi azot toplovchi tuganak bakteriyalarning faoliyati natijasida tuproqda 5-70 kg biologik azot toplanishiga erishish mumkin [2;65, 3;2, 4;6].

Ósimlikning ósishiga qulay sharoit yaratilisa hosil yuqori bóladí. Ósimlikning ósish holati katta ahamiyatga ega, sababi yaxshi rivojlangan ósimlikdan yuqori hosil olish mumkin. Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda biz soyaning hosil tóplashiga ekish muddatlarining tasirini órganish uchun tajriba ishiniib bordik.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida dukkakli don ekinlarini yetishtirish uchun Oral bóyi shórlangan tuproq sharoitida soya hosildorligiga ekish muddatlarining ta'sirini o`rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Soyaning navlari hosildorligiga ekish muddatlarining ósimliklarning ósib rivojlanishi, hosil tóplashi, kimyoviy tarkibi, biometrik kórsatkichlari va quruq moddalar to`plash ko`rsatkichlariga ta'sirini o`rganish;

Qoraqalpog'iston sharoitida dukkakli don ósimliklari boyicha tadqiqot ishlari kam olib borilganligi sababli, soya navlarini tóđri tanlash, ulardan yuqori va sifatli mahsulot olishning yetishtirish texnologiyasini, shu bilan bir qatorda

ekish muddatlari singari omillarni órganish keng hajmli ilimiy tadqiqot ishlarin olib borishni talab qiladi. Tajriba ishlari Qoraqalpoǵiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar instituti tajriba dalasida ótkazildi.

Tajribada soyaning 2 navi- “Nafis” va “Tumaris”, 3-ekish muddatlari- aprel oyining I-II va III- dekadalarini órganildi.

**Tadqiqot obyektini va uslubi.** Tadqiqot obyektini dukkakli don ekinlarining vakili soya ósimligining “Nafis” va “Tumaris” navlari hisoblanadi. Uslubi – soya navlarining dala sharoitida unuvchanligi, túp sonlari, ósimliklarning biometrik ólchamlarini dala ekinlarining Davlat nav sinash metodikasi bóyicha aniqlandi. Tuproqning shórlanish darajasi A.E. Arinushkina (1970) va V.A.Kovde (1983) metodikasi bilan va barg sathi B.A.Dospexovning (1968) metodikasi bilan aniqlandi. Bizlarning tajribamizda ekish materialini 1-sinf urugi bólib, ularni VIR metodikasi bóyicha ósimshalarining rivojlanish bosqichlarini órganganimizda 5 ballik osimshalarining kóp ekanligi aniqlandi, bu óz navbatida dala unuvshangligiga ijobiy tásir etadi. Bizning tajribamizda laboratoriya sharoitida unuvchanlik bilan dala unuvchanligi orasidagi farq órtacha 12-13 % bóldi. Dala sharoitida unuvchanlik laboratoriya sharoitidagi unuvchanlikka qiyoslasak past bólishini sababini urug unib chiqqan vaqtidagi tógridan-tógrini ajraladigan dala sharoiti bólib hisoblanadiganini kórsatamiz. Laboratoriya sharoitida uruǵlarning unib chiqishi uchun qulayli sharoitlar yaratilib beriladi, dalada esa u tabiiy holda ótadi. Masalan, laboratoriya sharoitida 24-26° C temperaturada soya uruǵlari 6-7 kunda unib boshladi. Dala sharoitida unuvchanglik ob-havo, ekish muddatiga, tuproq unumdorligiga va agrotexnik tadbirlarga bevosita boǵlik bóladini.

Vegetatsiya davrlarining ótishi va uning uchun talab etiladigan sharoit navlarning biologiyasiga aloqador bóladini. Biroq rivojlanishga qóllanilgan texnologik tadbirlarda sezilarli darajada tásirini ótkazadi. Tajribada órganilgan ekish muddatlari vegetatsiya davrining ótishiga málum darajada tásir etadi. Barcha dukkakli ekinlar kabi soya ósimligi ham maysalash, ǵunchalash, gullash, dukkaklarning shakllanishi, uning pishish davrlarini boshidan ótkazadi. Maysalash davri soyaning “Nafis” navida 6-10 kunda, u “Tumaris” navida 6-9 kunda ótdi. Kech ekilganda bu jarayon 1-2 kunga chózilganligi kuzatiladi.

Ѓunchalash fazasi “Nafis” navida 10 aprelda ekilganda 15-20 kunda kuzatildi; Soyaning ushbu navi 20 aprelda ekilganda 17-21 kunda kuzatilib, jarayon 1 kunga qisqarǵanligi aniqlangan; oxirgi ekish muddatida (30.04.) ekilganda ǵunchalash fazasi 17-21 kunda kuzatilib, birinchi muddatga qiyoslasak 1-2 kunga farq kuzatildi. Vegetatsiya davrinda eng uzoq vaqtga chóziladigan davr - bu pishish fazasi. Bu jaroyonda dastlab dukkaklar shakllanadi, keyn pishishga ótadi. Variantlarda bir qancha farqlar kuzatilgan. Birinchi ekish muddatida bu fazaning ótishi uchun 36 kun talab qilingan. Bu muddatdan 10 kundan sóng ekilganda pishish fazasi 40 kunda ótgan, 20 kun sóng ekilganda -43 kun ótganligi kuzatildi. (kech ekilgan variantlarda kuchli yomǵir va past harorat tufayli ósish jarayonlari bir muncha sust bóldi)

Tajribada soya navlarining ósishiga ekish muddatlari tásiri órganilib, ǵunchalash fazasida birinchi ekish muddatida “Nafis” navining poyasining balandligi 57 santimetrga yetgan. Bu nav 20 aprelda ekilganda poyasining balandligi 63 santimetrga yetib, birinchi muddatta ekilgan ósimliklardan 6 santimetr yoqori bólganligi aniqlangan. Uchunchi muddatta ekilgan variantda ósimliklarning poyasining balandligi 58 santimetr bólib, birinchi ekish muddatidagi ósimliklardan 1 santimetr yoqori bólganligi aniqlangan. Soyaning ǵunchalash fazasida birinchi ekish muddatida “Tumaris” navining poyasining balandligi 53 santimetr bóldi. Bu nav 20 aprelda ekilganda poya balandligi 58 santimetrga yetib, birinchi muddatta ekilgan varianttagi ósimliklardan 5 santimetrga yoqori bólganligi aniqlangan. Keyingi muddatta ekilgan ósimliklarning balandligi, ikkinchi muddatta ekilgan ósimliklarning balandligidan farq qilmadi. Gullash davrida birinchi ekish muddatida “Tumaris” navining poya balandligi 62 santimetr bóldi. Ushbu nav 20 aprelda ekilganda poyaning balandligi 61 santimetrge yetib birinchi muddatta ekilgan ósimliklardan 1 santimetr past bólganligi aniqlandi.

Tajriyada ekilgan soya navlarining birinchi pastki dukkakning joylashishi kech ekilgan sari pastroq joylashganligi aniqlandi.

Soya navlariga ekish muddatlari biometrik kórsatkishlariga katta tásir kórsatkanligi aniqlanib, hosilni tasdiqlaydigan barcha biometrik kórsatkishlar

ekish muddati kechikkan sari kamayib borganligi aniqlandi. Natijada hosildorlik 1-ekish muddatida optimal bo'ldi. 10-aprelda ekilganda Nafis navining hosili 52 c/ga, Tumaris navining hosili 48 c/ga bo'ldi. 2-ekish muddatida Nafis navida 50 c/ga, Tumaris navida 47 c/ga; 3-ekish muddatida Nafis navida 48 c/ga va Tumaris navida 46 c/ga bo'ldi. Olingan malumotlar boyicha Nafis navi 10-aprelda ekilgan variant optimal bo'ldi.

## **XULOSALAR**

1. Tajribamizdagi optimal ekish muddatlari soya navlarining balandlikka o'sishiga, vegetatsiya davrining o'tishiga ijobiy tasir korsartib, vegetatsiya davri soyaning Nafis va Tumaris navlarida hosil miqdori ortgan sari 1-2 kunga chozilgani aniqlandi.

3. Soya navlarida ekish muddati kechikkan sari birinchi dukkak pastroq joylashadi, o'simlik kam shoxlanadi, dukkak, don soni va vazni kamayib boradi.

4. Tajribada urganilgan navlarning orasida Nafis navining biometrik korsatkishlari yuqari bo'lganligi tufayli, hosili ham yuqari bo'ldi.

5. Qoraqalpog'istonning Oral boyi shorlangan toproqlarida olib borilgan tajriyalarga asoslanib soyaning Nafis navini aprel oyining 1-dekadasida ekish optimal bo'ladi deb hisoblaymiz.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.Siddikov va boshqalar. O'zbekistonda soya o'simligini asosiy hamda takroriy qilib o'stirish agrotexnologiyasi buyicha tavsiyanoma, Andijon, 2017, 50 b.

2. Atabaeva X. N., Isroilov I. A., Umarova N. S., Abitov Yu. I. Soya navlarining hosildorligiga ekish me'yori va usulining tasiri // Sholi va dukkakli-don ekinlarining seleksiyasi, urug'chiligi va agrotexnologik tizimini rivojlantirishning asosiy yonalishlari va imkoniyatlari: Maqolalar toplami. Resp. ilm. amal. konf.- Toshkent, 2010.- 65-67.

3. Yuldasheva Z.K.- Vliyanie sposobov, norm i srokov seva na urojaynost` nuta v usloviyax polivnix zemel` Tashkentskoy oblasti. //Avtoref. dis. na sois. uch. st. kand. s/x. nauk. UzNIIX.- Tashkent, 2002-2.
4. Ermatova D.,M.Xamraeva,M.Mallaev. International Seientific-practical conference actual issues of agricultural development problems and solutions, june 6-7, 2023
5. Oserbaeva T. Soya. «Bilim»-Nókis-2018,72 b.